



## “QISHLOQQURILISHLOYIHA”

Bosh loyiha instituti  
DAVLAT MUASSASASI

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УЧРЕЖДЕНИЕ  
Головной проектный институт

100128, Toshkent sh. A.Qodiriy, 7. Tel: (+99871) 241-13-23, 241-64-82, e-mail: QQL.uz@exat.uz, info@qqloyiha.uz

«13» 03 2025 y.  
№ 288/16

**Urbanizatsiya va shaharsozlik  
hujjatlarini ishlab chiqish  
Respublika markazi direktori v.v.b**  
**Sh. Atadjanovga**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 8 iyuldagи “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish choratadbirlari” to'g'risidagi PQ 245-sonli qaroriga asosan hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan tumanlar va shaharlarning drayver yo'nalishlarini amalga oshirish uchun master-rejalarni ishlab chiqish belgilangan.

Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazi tomonidan Samarqand viloyati Samarqand tumani "Ohalik va Mironqul" MFYlar hududida aholi va sayyoohlар uchun barcha qulayliklarga ega turizm maskanlarini tashkil etishga qaratilgan master-reja ishlab chiqish (LOT raqami 24150012404503) uchun loyiha tashkilotini aniqlashga etender.uzex.uz portalni orqali tanlov tashkil etilib, tanlov natijalariga ko'ra 2024 yil 19 dekabrda “Qishloqqurilishloyiha” bosh loyiha instituti DM g'olib deb topilgan.

Shuningdek buyurtmachi va loyihachi o'rtaida 2025 yil 7 yanvarda 2839-2024 sonli shartnoma (946074875,10 so'm) tuzilib, 2025 yil 25 fevralda 30 foiz miqdorda (283 882 463 so'm) avans mablag'lari to'lab berilgan.

2025 yil 20 fevralda institut tomonidan ishlab chiqilgan master reja loyihasi Samarqand viloyati hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari-turizm boshqarmasi boshlig'i, tuman hokimi va hokimlik vakillari hamda viloyat hokimligining master rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha loyiha ofisi xodimlari bilan birgalikda muxokama qilindi va muxokama jarayonida bildirilgan qo'shimcha taklif va tavsiyalar to'liq inobatga olinib, bugungi kunda master reja loyihasi qayta ishlab chiqildi.

2025 yil 11 mart kuni Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazida O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi va Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazining mutasaddi vakillari hamda tegishli mutaxassislar ishtirokida institut tomonidan ishlab chiqilgan master reja

loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi va taqdimot yakunida loyihaning umumiy kontseptsiyasini ma'qullandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 12 avgustdagi 497-soni qarorining 1-ilovasi 3-bob 14-15 bandlarida belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqilgan master reja loyihasi, tuman hokimligining rasmiy veb sayti orqali jamoatchilik muxokamasida ko'rib chiqilishi hamda vakolatli davlat tashkilotlari bilan kelishish uchun taqdim etilmoqda.

*Ilova: Master reja loyihasinig electron formati (PDF formatda) .*

Bosh direktor



I.S.Axmedov